



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-oktyabr

RAQAMLAR:


- 2018 yil yanvar-oktyabr oylarida bozor xizmatlari hajmi 5 2 1 3 , 5 mlrd.so'mga teng bo'ldi.
- Ta'lim sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'atlari 126,1 % ni tashkil qildi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 2772,3 ming so'mga yetdi.

Ma'lumki, xizmatlar ko'rsatish tizimini yaxshilash va modernizatsiya qilish aholi turmush darajasini oshirish, investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va tadbirkorlikni rivojlantirishga yordam beradi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 5213,5 mlrd.so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,2 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni savdo xizmatlari (33,7 %), transport xizmatlari (26,2 %), moliyaviy xizmatlar (9,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,8 %) tashkil etdi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida xizmatlar tarkibi,%




2018 yil yanvar-oktyabr oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 5213,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,2 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	5213,5	107,2
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	303,5	116,6
moliyaviy xizmatlar	513,7	121,9
transport xizmatlari	1364,9	103,7
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1275,6	102,6
yashash va ovqatlanish xizmatlari	228,9	105,2
savdo xizmatlari	1756,1	103,4
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	146,0	106,0
ta'lim sohasidagi xizmatlar	236,0	126,1
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	98,0	101,7
ijara xizmatlari	142,8	104,6
kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	124,3	105,8
shaxsiy xizmatlar	113,7	101,4
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	48,8	117,0
boshqa xizmatlar	136,8	108,8

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlari (1756,1 mlrd.so'm), transport xizmatlari hajmi (1364,9 mlrd. so'm), moliyaviy xizmatlar (513,8 mlrd. so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (303,5 mlrd. so'm), ta'lim sohasidagi xizmatlar (236,0 mlrd. so'm) oshishi kuzatilmoqda.


2018 yil yanvar-oktyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi, mlrd.so'm



Me'morchilik sohasidagi xizmatlarda xizmatlar hajmi nisbatan pastroq o'sish (48,8 mlrd. so'm) qayd etildi.

Eng yuqori o'sish sur'atlari ta'lim sohasidagi xizmatlar (126,1 %), moliyaviy xizmatlar (121,9 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (117,0 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (116,6 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (106,0 %) kabi xizmat turlarida qayd etildi.


2018 yil yanvar-oktyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari shaxsiy xizmatlar (101,4 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (101,7 %), savdo xizmatlar (103,4 %), transport xizmatlar (103,7 %) kabi xizmat turlarida kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida savdo xizmatlari sezilarli ulushni egallaydi. 2018 yil yanvar-oktyabr oylarida uning ulushi 33,7 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni transport xizmatlari (26,2 %), moliyaviy xizmatlar (9,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,8 %) egallaydi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %




Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar nisbatan yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan bo'lsada, lekin ularning ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi arziyas (0,9 %) ni tashkil etadi. Shu bilan birga eng kichik ulush sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar – 1,9 % ni tashkil etadi.

Hozirgi kunda viloyat ulgurji va birja savdo korxonalari faoliyati uchun zarur qonunchilik asoslari yaratilgan, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda chakana savdo tarmog'i faol rivojlanmoqda. Savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining sezilarli qismini tashkil qiladi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 1756,1 mlrd.so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 33,7 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %



- **Avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda**
- **Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)**
- **Avtomobillar va mototsikllardan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar**

Savdo xizmatlari tarkibiga avtomobillar va mototsikllardan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 80,1 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 13,9 % ga yetdi.

Avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda umumiy savdo xizmatlarining 6,0 % ni tashkil qiladi.

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 228,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2017 yil yanvar-oktyabr oylariga nisbatan o'sish 5,2 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 4,4 % ga yetdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 88,0 % ulush bilan etakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 12,0 % ga to'g'ri keladi.

Buxoro viloyati

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Mas'ul: S. Djabbarova

Tel: (65) 223-79-41